



## TARIX VA ONATILI DARSLARIDA MANTIQIY VA IJODIY FIKIRLASHNI RIVOJLANTIRISH

<https://doi.org/10.70728/c.series.v08.i02.046>

*Xalmirzayev Mamirjan Axunjanovich*

*Alfraganus university “Matematika va fizika” kafedrası katta o‘qituvchisi*

*Tel.: +998997956288mamurjonxolmirzayev@gmail.com*

<https://orcid.org/0009-0006-5486-0948>

**Annotatsiya.** Bu Maqolada ta'lim jarayonini samarali o'tkazish uchun yanada qulay shart-sharoitlarni yaratish uchun fanlararo integratsiyasini qo'llash, mantiqiy va ijodiy fikirlashni rivojlantirishni dars jarayonida qo'lashni usullari ko'rsatilgan.

**Kalit so'zlar:** mantiqiy, ijoqiy, usullar, integrasiya, dars, maqollar, metodlar, vizual, misollar.

**Аннотация.** В статье представлены методы использования междисциплинарной интеграции и развития логического и творческого мышления в классе для создания более благоприятных условий для эффективного осуществления образовательного процесса.

**Ключевые слова:** логический, творческий, методы, интеграция, урок, пословицы, методы, визуальный, примеры.

**Abstract.** The article presents methods of using interdisciplinary integration and development of logical and creative thinking in the classroom to create more favorable conditions for the effective implementation of the educational process.

**Keywords:** logical, creative, methods, integration, lesson, proverbs, methods, visual, examples.

**KIRISH.** Tarix va Onatili o'qituvchilariga zamonaviy metodik yondashuvlarni taqdim etish, Tarix va Onatili fanini o'qitishning nazariy asoslarini yoritish, Amaliy metodik tavsiyalar va uslubiy materiallar bilan ta'minlash Kompetensiyaviy yondashuv asosida Tarix va Onatili o'qitishni takomillashtirish haqida so'z yuritilgan.

Testlar milliy o‘quv dasturiga muvofiq ishlab chiqilgan bo‘lib, quyidagi asosiy vazifalarni bajarishga qaratilgan, O‘quvchilarning har bir mavzudagi bilim darajasini aniq aniqlashga, O‘quvchilarni bilim darajasi bo‘yicha guruhlarga ajratishga, Zaif tomonlarni bartaraf etish va kuchli tomonlarni rivojlantirishga, Kelgusi o‘qitish jarayonini rejalashtirishga yordam beradi. Xozirgi zamonaviy talimda dars jarayonida mantiqiy va ijodiy fikirlash bilimlarni samarali o‘zlashtirish va talabalarda yuqori darazadagi fikrlash kuchini rivojlantirishda muhim o‘rin egallaydi.

### **Adabiyotlar tahlili.**

Tarix va Onatili o‘qituvchilariga zamonaviy metodik yondashuvlarni taqdim etish, Tarix fanini o‘qitishning nazariy asoslarini yoritish, Amaliy metodik tavsiyalar va uslubiy materiallar bilan ta'minlash Kompetensiyaviy yondashuv asosida tarix o‘qitishni takomillashtirish haqida so‘z yuritilgan.[1].Qadimgi Sharq, Qadimgi Yunon, Urta asrlar, Yangi vaqt, XX asr Dunyo pedagogikasi tarixi, Ta'lim nazariyasining rivojlanish dinamikasini ko‘rsatishga, sharq va g‘arb pedagogikasining o‘zaro ta'siri, Ta'lim tizimining ijtimoiy-iqtisodiy asoslarini ochiklash, Xalq og‘zaki ijodi [7], madrasa ta'limi, yangi maktablar, Komenskiy, Pestalotstsi, Disterveg, Makarenko, Suxomlinskiy olimlarni fikri haqida so‘z yuritilgan.[3].[4].[5]. Gulchehra Xidoyatovanning "Amir Temur va temuriylar davri" asari nafaqat tarixiy faktlarni o‘rganish, balki O‘zbekistonning buyuk madaniy merosini, ilmiy yutuqlarini va jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan hissasini chuqur anglash uchun qimmatli manba hisoblanadi. Asar o‘quvchilarga nafaqat o‘tmishni, balki o‘z milliy kimligini va kelajak istiqbollari ham anglash imkonini beradi.[8]

### **ASOSIY QISM.**

O‘qituvchilarga ta'lim jarayonini yanada samarali va insoniylashtirilgan holga dars o‘tishda fanlararo bog‘likni qo‘lash katta yordam beradi. Bunda talabalarni yoshini hisobga olish kerak. Shu maqsada Ona tili va Tarix darslarida ijodiy va mantiqiy fikirlashni qo‘lashga doir misolar ko‘rib chiqamiz.

#### **Namunalar:**

#### **Yaxshilik va yomonlik haqid maqollar.**

1) Ajalga davo yo‘q, Yomonga — balo.

Shu maqolni *Ajalga davo yo‘q, Yomonga — .....* kabi ko‘rinishda berib nuqtalar o‘rniga mos so‘zni toping dep savol qo‘ish mumkin yoki ( bola, balo, joy, kafan) kabi variantlardan mosini toping desa ham bo‘ladi. Yana birnechta misollar keltiramiz.

2) Baliq suv bilan tirik, Odam — ..... Javobi : el bilan.

3) Bekorchidan bezib qoch, Chaqimchidan — .... Javobi : ko‘chib.

#### **Adolat, insof va insofsizlik haqida maqollar**

1)Adovat emas, adolat .....

j:Yengar

2)Adolat qilichi kesgan qo‘l .....

3)Arzon bo‘lsa, oluvchidan insof ketar, Qimmat bo‘lsa .....

### Vatan va vatanparvarlik haqida maqollar

1)Ayrilmagin elingdan, Quvvat ketar.....

2)Baliq suv bilan tirik, Odam .....

Mantiqiy fikirlashga misollar ko‘ramiz:

1-Savol: "Kitob, daftar, qalam, o‘quvchi" so‘zlaridan mantiqiy jihatdan ortiqcha so‘zni toping.

Javob: "O‘quvchi" - bu boshqalari (predmetlar)dan farqli ravishda jonli mavjudot, ya'ni odam.

2-Savol: "Yomg‘ir yog‘di, shuning uchun yer nam bo‘ldi" jumlasidagi mantiqiy bog‘lovchini aniklang.

Javob: "Shuning uchun" - sabab-natija munosabatini ifodalovchi mantiqiy bog‘lovchi.

### Mantiqiy xatolarni topish

1- Misol: "Men barcha do‘stlarimni yaxshi ko‘raman. Axmad mening do‘stim. Shuning uchun Axmad meni yaxshi ko‘radi."

Mantiqiy xatolik: "Men barcha do‘stlarimni yaxshi ko‘raman" deganimdan "Barcha do‘stlarim meni yaxshi ko‘radi" degan xulosa chiqarib bo‘lmaydi.

O‘zbekiston maktablarining 5-11 sinf o‘quvchilari uchun **Tarix** fanlaridan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarini aniq baholash maqsadida diagnostik testlar to‘plamini ham tuzish mumkin. Bunga ham testlardan namunalar keltiramiz:

**ESLATMA:** Oldin javoblarni tahlili o‘quvchilardan so‘raladi.

### 1-Savol. Amir Temur davrida Samarqand qanday ahamiyatga ega edi?

Javob. Amir Temur Samarqandni o‘z davlatining poytaxti qilgan.

Oqibatta----- (Samarqand ilmiy, madaniy va iqtisodiy markazga aylangan) qavsni ichidagi javobni topishni o‘quvchilardan talab qilinadi.

### 2-Savol. 1991-yil 31-avgustda nima sodir bo‘ldi?

**Javob.** O'zbekiston mustaqilligi e'lon qilindi.

Sababi----- (Sovet Ittifoqining parchalanishi.) qavsni ichidagi javobni o‘quvchi topishi kerak.

**3-Savol. XIX asrda O‘zbekiston Rossiya tomonidan bosib olinishini sababini, ijobiy va salbiy tomonlarini taxlil qiling.**

**Sabablari:** ----- (Rossiyaning janubga kengayish siyosati, Iqtisodiy manfaatlar paxta, savdo yo‘llari, Strategik joylashuv).

**Ijobiy oqibatlar:**----- (Temiryo‘l qurildi, zamonaviy texnologiyalar kirib keldi).

**Salbiy oqibatlari:** -----( Milliy mustaqillik yo‘qoldi, madaniyat bosildi)

**4-Savol.** Buyuk Ipak yo'li haqida nimalarni bilasiz?. (**Geografik sabablari , Tarixiy sabablari , Iqtisodiy oqibatlari , Madaniy oqibatlari** )

**Javobi** -----( Tabiiy yo'llarning mayjudligi , Xitoy va Rim imperiyalari o'rtasida savdo , Shaharlarning rivojlanishi , Din, til, madaniyat almashinuvi )

**5-Savol.** "Amir Temur 1370 yilda Movarounahrni hukmdori bo‘lgandan keyin U Samarqandni poytaxt qilib belgiladi." **Chunki-?** ( Amir Temur Movarounahrni birlashtirishga muvaffaq bo‘ldi , Oqibatda Samarqand madaniy, ilmiy va iqtisodiy markazga aylandi ).

**6-Savol.** Alisher Navoiy o‘zbek va fors tillarida ijod qilgan. Nima uchun?

**Javob**----- ( O‘zbek adabiy tilini rivojlantirish istagi bo‘lgan , Fors tili o‘sha davrda madaniyat va adabiyot tili edi )

O‘quvchilarni tanlil qilishga o‘rgatish uchun so‘rovnomlardan foydalanish ham mumkin.

**So‘rovnomaga misollar:**

- 1) Savol: “*Mantiqiy fikrlashga bo‘lgan qiziqishingiz qanday ?*”
  - A) Katta qiziqish bor.
  - B) O‘rta darajada qiziqaman.
  - C) Kam qiziqaman.
  - D) Mantiqiy fikrlashga qiziqishim yo‘q.
- 2) Savol: “*Sizga mantiqiy sabab-oqibat aloqalarini anglashda qanday qiyinchiliklar tug‘iladi ?*”
  - A) Yoqqandan keyin xulosa chiqarish.
  - B) Qo‘shimcha ma’lumotlar topishda qiyinchiliklar.
  - C) Boshqa fikrlarni tushunishda qiyinchiliklar.
  - D) Yordamga muhtoj bo‘lmasdan mustaqil fikr yuritishda qiyinchiliklar.
- 3) Savol: “*Siz mantiqiy fikrlashga qiziqishingiz qanchalik yuqori darajada ?*”
  - A) Juda yuqori darajada qiziqaman.
  - B) O‘rta darajada qiziqaman.
  - C) Kam qiziqaman.
  - D) Mantiqiy fikrlashga qiziqishim yo‘q.
- 4) Savol: “*Muammolarni hal qilishda qanday usuldan foydalanishni afzal ko‘rasiz?*”
  - A) Muammoni tezda hal qilish uchun qisqa yo‘llardan foydalanish.
  - B) Muammoni bir qancha variantlar bilan tekshirib ko‘rish.
  - C) Muammoni hujjatlar orqali yozib chiqib, barcha variantlarni o‘rganish.
  - D) Boshqalarga ko‘maklashishga yoki ularning fikrlarini tinglashga intilgan holda.

5) Savol: “Siz har qanday mantiqiy vaziyatda odatda qanday qaror qabul qilasiz?”

- A) Yordam olgan holda, boshqalar bilan muhokama qilib.
- B) Men har doim mustaqil qaror qabul qilishni afzal ko‘raman.
- C) Bir necha imkoniyatlardan foydalanib, eng yaxshi yechimni tanlayman.
- D) Mantiqiy asoslangan xulosalarga borish uchun vaqt olishga intilaman.

### **Hulosa**

Ushbu diagnostik testlar yuqorida keltirilgan barcha manba va adabiyotlardan foydalangan holda, maktab o‘quv dasturiga qat’iy rioya qilgan holda, zamonaviy pedagogik talablar asosida ishlab chiqilgan. Har bir test savoli o‘quvchilarning nafaqat faktik bilimini, balki tahlil qilish, xulosa chiqarish va mustaqil fikrlash qobiliyatini ham baholashga qaratilgan.

Bu texnologiyalar orqali talabalar axborotni qayta ishlash, Tarixiy voqiyalarni sababi, oqibatlarini va natijalarini tahlil qilish, yodda saqlash va oqilona qaror qabul qilish ko‘nikmalarini shakllantiradilar. Simulyatsiya, kognitiv mashqlar va neyrotrenajyorlar yordamida amaliy jarayonda talabalarning faolligi va qiziqishi oshadi, ular real hayotiy vaziyatlarda tezkor va asosli qaror qabul qilishga qodir bo‘ladilar.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. "Tarix o‘qitish metodikasi" (A. To‘xtayev) TDPU, 2020-yil
2. "Tarix darslarida interfaol metodlar" (Z. Qodirova) "Fan va texnologiya", 2021-yil
3. "O‘zbekiston tarixi" (3 jildlik) (A. Ahmedov, R. Masov, J. Yo‘ldoshev) "O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2019-yil
4. "Pedagogika tarixi" (M.X.To‘xtayev, Sh.Sh.Shomaqsudov)
5. "O‘zbekistonda Taъlim Tarixi" (D.H.Hasanova, M.Q.Qodirova)
6. "Temuriylar davri madaniyati" (Z. Islomova) "San'at", 2022-yil
7. "Ўзбек тили ўқитиш методикаси" (H. Махмудов, M. Ҳошимов)  
Тошкент: "Ўқитувчи", 2020 йил
8. Хидоятова, G. (2021). *Amir Temur va temuriylar davri*. Toshkent: "Sharq".
9. *Ўзбек мақоллари (тўплам)*. (2020). Тошкент: "Шарқ".